



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
INNOVATSION  
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

**“BOSHLANG'ICH TA'LIM INNOVATSION  
KLASTERI VA RAQAMLI TA'LIM:  
EHTIYOJ, ZARURAT, NATIJA”  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**



**Бухоро - 2021**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI KAFEDRASI**

# **Boshlang'ich ta'lism innovatsion klasteri va raqamli ta'lism: ehtiyoj, zarurat, natija**

**Respublika miqyosidagi  
ilmiy-amaliy konferensiya materiallari  
(10 MART, 2021 YIL)**

Tarqatish hududi:  
<http://interscience.uz/>  
onlayn

**Respublika ilmiy-nazariy anjumani tashkiliy qo'mitasi:**

Raisi: O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori.

Rais o'rindbosari: O.S.Qahhorov - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini

**A'zolari:**

Q.R.To'qsonov, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti dekani.  
D.N.Mustafayeva, Buxoro viloyati xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i

G.T. Zaripov, IT, I va IPKTB bo'limi boshlig'i.

Yu.Yu.Azimov, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti o'quv ishlari  
bo'yicha dekan o'rindbosari.

N.O. Safarova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti yoshlar bilan  
ishlash bo'yicha dekan o'rindbosari.

M.Yo.Ro'ziyeva, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi mudiri.

G.R.Akramova, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lism fakulteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo'yicha mas'ul.

B.S.Jamilova, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi dotsenti.

S.Akramova, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi.

S. G'.Luqmonova, Boshlang'ich ta'lism nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi, kotib

ISBN

To'plamga kiritilgan maqola va tezislardagi fikr va ma'lumotlarning  
to'g'riligiga mualliflar mas'ul.

## MUNDARIJA

KIRISH .....	8
1-SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION KLASTER: MUAMMO VA YECHIMLAR ....	9
<u>O.X.Xamidov.</u> Ta'lim klasterining afzalliklari.....	9
<u>Фоуржон Мухамедов</u> Педагогик таълим кластери: чирчик тажрибаси .....	11
<u>Maxmudov M.X</u> Ta'limga klaster yondashuvning nazariy-metodologik asoslari .....	15
<u>To'xsanov Q.R.</u> Maktab - universitet -ishlab chiqarish bosqichlarida klaster yondashuvlar – samaradorlikning kafolati .....	16
<u>Ro'ziyeva M.Y.</u> Raqamli ta'lim jarayonining shakllanishi va rivojlanish omillari.....	19
<u>Б.С.Жамилова</u> Болалар ижодий тафаккурини шакллантиришда педагогик таълим инновацион кластери фаолиятининг самарадорлиги.....	21
<u>Ходжамкулов У.</u> Педагогик таълим инновацион кластери: хорижий тажриба ва миллый ташаббус .....	24
<u>Akramova G.R.</u> Boshlang'ich ta'linda innovatsion klasterga ehtiyoj .....	30
<u>А.Р.Хамроев</u> Бошланғич таълимга замонавий ёндашув: натижа ва таҳлил .....	31
<u>Жамилова Б.С.. Нигора Муртазоева</u> “Мактаб-лаборатория” тажриба инновацион майдончалари истиқболли лойиҳалар кафолати.....	33
<u>Ziyodova Zahro</u> Badiiy asarni tushunish va tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirishda pedagogik ta'lim innovatsion klasteri ahamiyati .....	34
<u>Subhonova S. U.</u> Boshlang'ich ta'linda fanlararo integratsiya va innovatsion loyihalar klaster modeli namunasi sifatida .....	35
<u>Kuzmanova G.B.</u> Boshlang'ich sinf matematika darslarida matnli masalalrni yechishga o'rnatishda innovatsion klaster usuli .....	38
<u>Миртурсунова Ю.А.</u> Термин «образовательный кластер» в современной методике .....	41
2-SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIM INNOVATSION KLASTERINI TASHKIL ETISH ZARURATI ...	45
<u>Тешабоева З. С</u> Илм-фан ва таълим тизимида кластер- соғлом рақобат омили.....	45
<u>Boltayeva M. A.</u> Badiiy asar tahlili – o'quvchi nutqini o'stirishda muhim omil .....	46
<u>Хусенова М. X.</u> Pirls ҳалқаро баҳолаш тизими .....	48
<u>Умарова З.</u> Бошланғич синфларда педагогик конфликтларни бартараф этишнинг инновацион кластери .....	51
<u>Очилов Ф.И.</u> Бошланғич синф ўкувчиларига табиий-илмий билимларни ўргатишнинг мавжуд муаммоларини бартараф этишда кластернинг аҳамияти.....	54
<u>Boboqulova.S.B, Isoyeva.M.B</u> Markov jarayonlari va zanjiri .....	56
3- SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION KLASTER - FANLARARO INTEGRATSIYA VA UZVITYLIKNI TA'MINLASH KAFOLATI .....	59
<u>Абдуллаев А. А.</u> Мактабгача таълимда кластер самараси.....	59
<u>Бердиева М. М., Курбонмуродова Ф.</u> PIRLS баҳолаш тизими асосида саволлар миллый базасини яратиш долзарб аҳамияти .....	61
<u>Халилова Р. Р.</u> Виртуал мулокот имкониятлари.....	63

<u>Ачилова М. С.</u> Мактабгача ва бошланғич таълимда узвийликни таъминлаш давр талаби..	64
<u>Davronov I.E., S.Muhiddinova</u> O'quvchi salomatligini muhofaza qilish omillari.....	66
<u>I.E.Davronov</u> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish.....	67
<u>Бердиева М. М. Хушбокова З. Ф.</u> Бадиий адабиёт воситасида мактабгача ёшдаги болаларни маънавиятини шакллантириш долзарб педагогик муаммо сифатида.....	68
<u>Rajabova I. Qosimova M.</u> MTTda bolalarni intellektual rivojlantirishda o`yin mashg`ulotlarining ahamiyati .....	71
<u>Бердиева М.М., Жумаева М. Э.</u> Миллий қадриятлар орқали мактабгача ёшдаги болаларни эстетик тарбиялаш .....	73
<u>Чиналиева А.</u> Ўқитувчини инновацион фаолиятга тайёрлаш .....	74
<u>Uktamova M. Nosirova D.</u> Methodology of comparative teaching of the author to the sources of folklore in primary school lessons .....	77
<u>Мансурова X.</u> Бошланғич синфларда она тили фанидан интеграция ва узвийликни таъминлашда иншонинг ахамияти .....	78
<u>Жабборова М.</u> Биология таълимида интегратив технологиялардан фойдаланиш .....	79
<u>Ибрагимов Д.А.</u> Ахборот асрида ёшлар маънавиятига мафкуравий тазиикларнинг таъсири .....	82
<u>Машарипов Ж.</u> Соғлом бўлишга жисмоний ва рухий жиҳатдан камол топишга йўналтирилган кўникма ва малакаларни шакллантириш .....	84
<u>Сантметов О.Б.</u> Жамоатчилик назорати механизмларини ривожлантиришнинг ўзига хос жиҳатлари .....	85
Курязова Н. Применения pirls в начальных классах (австрийский опыт) .....	86
<u>Кучкарова М.</u> Информационные технологии как метод влияния.....	89
<u>Sariyev Sh.U.</u> Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish jarayonida fanlararo integratsiya va uzviylikni ta'minlash .....	92
<u>Усманова С.Э., Бозорова Б. Ч.</u> Болаларни мактабгача таълим муассаларида маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш аспектлари .....	94
<u>Yo'ldosheva Sh.</u> Integratsiya – dars samaradorligini oshirish omili .....	97
<u>Усманова С., Эргашева Г.</u> Мактабгача таълим муассасаларида касб - ҳунарга йўналтириш масалалари .....	99
<u>Хамдамова М. Дж., Абдурахманова А.</u> Импульсивное поведение в младшем школьном возрасте .....	101
<u>Пўлотова Ю.А.</u> Она тили ва ўкиш дарсларини интеграциялашда ахборот - ресурс таъминоти .....	103
<u>Axmedova D., Mametjumayeva G.</u> Boshlang'ich sinflarda badiiy asar matnini tahlil qilish usullari.....	107
<u>Hamidova I.</u> Problems of translation of "spirituality" units in uzbek and english dictionaries ...	109

<u>Турдиева Н.С.</u> Таълим кластери таълим интеграциясининг институционал тизими сифатида.....	110
<u>Najmiddinova D.</u> Interpretation of the profession in the “shohnoma” .....	113
4- SHO'BA. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISH.....	117
<u>Умуроев З.Л.</u> Таълимни рақамлаштириш шароитида бошланғич синфларда таълимий муаммоларни тайёрлаш технологияси.....	117
<u>Лукмонова С.Ф.</u> Ўқитувчи фаолиятида ракамли таълим: муаммо, ёчим, самара.....	120
<u>Шамсиддинова Д.Х.</u> Бошланғич таълим жараёнида юзага келадиган педагогик низоларни бартараф этиш .....	121
<u>Shazadayev F</u> Boshlang'ich ta'lim y o'nalishida axborot texnologiyalarini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	123
<u>Ходжаева М.</u> Бўлажак мутахассисларда мулокот маданиятини шакллантириш .....	128
<u>Ochilova L.T., N. B. Razzoqova</u> Matematikadan amaliy mashg'ulotlar jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligi.....	129
<u>Ochilova L.T.</u> Matematika darslarida pisa testlaridan foydalanishning amaliy ahamiyati.....	131
<u>Ochilova L.T., L.Ch.Rajabova</u> STEAM ta'lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg'or usullari .....	135
<u>L.T.Ochilova S.Erkinova</u> Boshlang'ich matematika kursini o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasi .....	137
<u>Axrorov I., Qosimov A</u> Arifmetik masalalar ustida ishlash borasida ba'zi ilmiy – uslubiy mulohazalar.....	139
<u>Djumayev M</u> Boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyatga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari.....	143
<u>X.J.Sattorova Z. I.Abdunazarova</u> O'qish darslarida hikoya matni ustida ishlashda pirls topshiriquqlardan foydalanish.....	146
<u>M.H. Raxmatova</u> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ta'lim-tarbiyasida o'qituvchining o'rni....	148
<u>Komilova Sh.A.</u> Boshlang'ich sinf ona tili darslarida fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish.....	149
<u>Muxitdinova N.B.</u> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini multimediali texnologiyalar vositasida shakllantirish .....	152
<u>Nuritdinova Sh., Askarova M.</u> Boshlang'ich sinflarda so'zlarning ko'chma ma'nosi ustida ishlash .....	154
<u>M.D. Xaydarova D.Hakimova</u> Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarini olib borilishi .....	157
<u>Xudayarova M., Djanabayeva X.</u> Raqamli ta'lim texnologiyalari orqali ona tilini o'qitish jarayonida kompyuter dasturlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	158
<u>Hamrayev M.A Xakimova Z.A.</u> Boshlang'ich sinf darsliklarida olmosh so'z turkumining o'r ganilishi .....	159
<u>Masharipova U.A.</u> Raqamli ta'lim texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy etish is tiqbollari.....	162



<b>5- SHO'BA. RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA XXI ASRDA TA'LIM .....</b>	<b>165</b>
<u>Ялгарова Г.</u> Раҳбар шахс имижини белгиловчи психологик сифатлар.....	165
<u>D.X.Shodmonqulova D.G'.Pardaboyeva</u> Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ona tili darslarida mashqlar vositasida kerativ fikrlashga o'rgatish.....	166
<u>Хасанова Г.</u> Суть инновационных педагогических технологий в дошкольных образовательных организациях .....	169
<u>Sayfullayeva N., Sharipova G</u> Boshlang'ich sinf ona tili mashg'ulotlarida didaktik o'yinlarni multimedia texnologiyasi asosida tashkil etish.....	171
<u>Илясова М., Илясова А.</u> Ёшларга диний таълимотни тўғри тарғиб қилиш .....	173
<u>Муродова Ш.</u> Компетенциявий ёндашув – ўкувчи ижтимоийлашувининг муҳим асоси ..	175
<u>Hamidova I.</u> Problems of translation of "spirituality" units in uzbek and english dictionaries...	177
<u>Рустамов Ж.</u> Меъморчилик ва табиатнинг уйғун мутаносиблиги .....	179
Қаҳҳорова Д. Педагогика коллекти талабаларида ўкув мотивацияни ривожлантириш.....	183
<u>Najmuddinova D.</u> Interpretation of the profession in the "Shohnoma" .....	185
<u>Ахмедова Ш., Пўлатова М.</u> Хорижий тилларни ўқитишида педагогик технологиялардан фойдаланишининг моҳияти .....	188
<u>Mirhanova G., Ostonayeva Sh.</u> Jahon leksikografiyasida o'quv lug'atchiligi-ning o'r ganilishi va unda sinonimik lug'atlarning o'rnii	
<u>Ҳакимова М., Мансурова Д</u> Мусика ўқитишининг янги ёндошувлари концепти .....	191
<u>Бўронова Н., Камалова М.</u> Шарқ мутафаккирлари асарлари орқали ўкувчиларда адолат-хукукий тарбия кўнкимларини ривожлантириш .....	192
<u>Хайруллаева Ш Жалолова Ш</u> Ўкувчидаги атроф-муҳитни тоза тутиш компетенциясини шакллантиришининг тарихий таҳлили .....	194
<u>Бўронова Н. Ортикова Г</u> Бошланғич синф ўқитувчилари касбий компетентлигини шакллантириш йўллари.....	195
<b>Нарзиева М.С. Таълим ва тарбия узлуксизлигини таъминлашда ўқитувчи ва ўкувчи ўртасидаги ҳамкорлик.....</b>	<b>197</b>
<u>Курбонова Д</u> Шарқ мутафаккирлари мероси орқали ўкувчиларни маънавий, умуминсоний кадриятлар руҳида тарбиялаш .....	199
Асланова Н. Ўқитувчи педагогик фаолиятида ижодкорликнинг аҳамияти .....	200
<u>Фаттоева О</u> таълимда инновацион фаолият кўнкимларининг ўзлаштирилиши .....	202
<u>Masharipova U.A.</u> Raqamli ta'lism texnologiyasini o'quv jarayoniga joriy etish istiqbollari .....	203
<u>Qurbanova G</u> O'qituvchida nutq ko'nikmalarini shakllantirish masalasi va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	205
<u>Худойбердиева Н.Ў.</u> Абдулла Қодирий асарларида тарихий инверсия ва фольклор хронотопи масаласи.....	207
<u>Маъруғжонова Д</u> Цифровое обучение в сфере образования .....	209



<u>Xusanbayeva X.A.</u> О‘qish darslarida matn ustida ishlashda pirls topshiriqlaridan foydalanish .	211
<u>Шарипова Н.</u> Отношение Помешиков К Чичкову, Как Новому Поколению Дельцов.....	213
6- SHO‘BA. TALABALAR AMALIYOTINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	216
<u>Акрамова С</u> Жамол камол шеърларида ўзбекча-тожикча лексемалар табнати.....	216
<u>Н.А.Хамедова</u> Талабалар амалиётини рақамли технологиялар асосида тақомиллаштириш самарадорлиги.....	218
<u>Файзуллаев М. Б.</u> <u>Сандова М.М.</u> Обычаи и обряды в единицах лингвокультуре .....	220
<u>M.D. Xaydarova</u> Naqshbandiya ta’limotidan boshlang’ich sinflar texnologiya darslarida foydalanish imkoniyatlari .....	223
<u>Gadoeva Sh</u> Ona tili ta’limi sifat va samaradorligini oshirishda didaktik o‘yinlarning ahamiyati.....	225
<u>Үринова М</u> Роман огоҳлантиришлар .....	227
<u>Сандова Р</u> Лирик матнни семиотик таҳдил қилиш.....	229
<u>Ш.Фармонова</u> Бўлажак ўқитувчилар коммуникатив маданиятини миллй ва умумисоний қадриятлар асосида ривожлантириш.....	231
<u>H.H.Rahmatov</u> Matematika darslarida o‘quvchi o‘quv faolyatini tashkil etish shakllari.....	233
<u>А.И.Иноятов Эшов</u> ЭОпределение стресса у учеников начальной школы .....	235
<u>Axmedova D Eshqulova G</u> Miraziz A’zam she’rlarida vatan madhi .....	239
<u>Jo‘rayev A</u> Eritmalar mavzusiga oid masalani turli usullarda yechish orqali talabalarda interaktivlikni oshirish .....	240
<u>M.D. Xaydarova</u> “ X.Jahonqulova Texnologiya va kasb ta’limidan sinfdan tashqari mashg’ulotlar tashkil qilish texnologiyasi” .....	243
<u>M.D. Xaydarova M.G’.Qodirova</u> “Boshlang’ich sinf mehnat ta’limida turli materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish” .....	244
<u>M.D. Xaydarova U.Oolloqulova</u> “Umum ta’lim mabablari 1-4 – sinflarida texnologiya ta’limini o’qitishning interfaol usullari” .....	245
<u>Турдиева Н.С.</u> <u>Мирова С</u> Таълимнинг ижтимоий функциялари.....	247
<u>M.D. Xaydarova N.Namozova</u> Boshlang’ich sinf texnologiya darslarida applikatsiya ishlarini bajarish metodikasi .....	249
<u>Дустова Д Шарапова Н.</u> К вопросу формирования эстетической культуры у студентов направления начального образования в процессе преподавания русского языка.....	251
<u>Raximova D.</u> Didaktik o‘yinlar yordamida o‘quvchilarning matematik savodxonligini shakllantirish.....	255
<u>Мирханова Г. Илхомова З.</u> Қадимги юонон ва рус тилшунослигига синоним луғатларнинг шаклланиши .....	256
<u>Do’stova M.</u> Ona tili fanining ta’lim-tarbiya rivojidagi ahamiyati.....	258

<u>М.Б.Файзуллаев М.А.Рузнева</u>	Градация глаголов психического состояния.....	260
7- SHO`VA .....	.....	263
<u>Хамида Нусратова</u>	Абдулла авлонийнинг болаликка аталган шеърларининг мавзулар кўлами .....	263
<u>Safarov F., Xalilova M.</u>	4-sinf o`quvchilarini o`z nutqida maqoldan foydalanishga o`rgatish ...	265
<u>Яхшимбекова С. Мирзаева</u>	Психологик хизматнинг ўзига хос ижтимоий-психологик хусусиятлари .....	269
<u>Sharipova I.F</u>	Ajoyib sonlar va ularning xossalari.....	271
<u>Яхшимбекова С.</u>	Онлада тенгликни таъминлаш - ўсминаларда стрессни олдини олиш омили.....	274
<u>Hamrayev M.A. Egamova G</u>	Boshlang`ich sinf ona tili o`quv dastur va darsliklarida sintaktik bilimlarning berilishi.....	276
<u>Tursunova Z.</u>	Sinfdan tashqari o`qish uchun kitob tanlash tamoyillari.....	280
<u>Абдуллаев К</u>	Профессионал таълим муассасаси ўкувчиларида ватанварварлик тарбияси технологияси .....	282
<u>Ikromova N</u>	Boshlang`ich sinf “o`qish kitobi” darsliklarida berilgan xalq og`zaki ijodi asarlarining mazmun-mundarijasi.....	285
<u>Rustamova Z</u>	Xudoyerberdi to`xtaboyevning sarguzasht romanlariga xos xususiyatlar .....	288
<u>М.Нематова</u>	Бошланғич синф ўқиши дарсларида ўкувчиларда адабий тушунчаларни шакллантириш .....	291
<u>Д.Максудова</u>	Умумтаълим мактабларида она тили таълимида ўкувчилар тил компетентлиги таҳлили .....	294
<u>Tosheva N</u>	Boshlang`ich sinf o`quvchilari iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning dolzarbligi .....	296
<u>С.Каримова</u>	Бошланғич таълимда ўкувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш .....	298
<u>М.Зубайдуллаева Ибрагимова М.С.</u>	Бошланғич синф ўқиши дарсларида матн устида ишлаш оркали нутқ ўстириш .....	301
<u>Djumayev J</u>	Texnologiya fanini umumta`lim fanlari bilan o`zaro integratsiyasi va o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini tashkil etish.....	306
<u>Хамдамова М Абдурахманова А</u>	Импульсивное поведение в младшем школьном возрасте .....	310
<u>А .К.Ниссанбаева</u>	Педагогик техниканинг муҳим хусусиятлари амалда .....	313
<u>Djumaeva M</u>	Boshlang`ich ta`lim yo`nalishida tabiiy fanlar orqali o`quvchilarda tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish .....	315
<u>Ashrapova N.</u>	Boshlang`ich sinf o`quvchilarini matematika darslarida fikrlash qobiliyatlarini o`stirish .....	318
<u>Абдуллаева Л.</u>	Повышение потенциала бакалавриата на более высокий уровень на основе развития творческих компетенций .....	319

топталаётгани ҳақида аламли сатрлар битганини айтишимиз керак. Бу шеърда ижтимоий рух, назаримизда, янада кучайган, янада очикрок намоён бўлган. Чунки биз – Туркистонликлар хам илм-фан нуридан баҳраманд бўлиб, тараккий қилсак, она замин кўксидаги хазиналарни илм кучи билан топиб бойисак, тош-тарозини билиб, ҳакимизни ўзгаларга олдириб ўтирасак, деган аламли туйғу Авлонийнинг кўп шеърларида гоҳ пинҳон, гоҳ ошкора илгари суриласди. Шоир янги авлодни ана шу норозилик туйғуси билан йўғириб тарбиялаш орқали она ҳалқининг, она тупроғининг баҳтли келажагига замин қўймоқчи бўлади. Зоро, илм-фан нуридан баҳраманд бўлган инсонгина ўз ҳақ-хукукини танийди, истиқбол учун кураша олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Жадидчиларнинг маърифатпарварлик харакатлари ва унинг ҳалқ маънавиятини кўтаришда тутган ўрни //Отамуратов С., Раматов Ж., Хусанов С. Маънавият асослари: Маърузалар матни.-Т., 2000.-Б.139-147.
2. Абдулла Авлоний (1878-1934) //ХХ аср ўзбек адабиёти тарихи: Ун-тлар ва пед.ин-тлари бакалавр ихтисосини олувчилар учун дарслик /Н.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров ва бошк.-Т.: Ўқитувчи, 1999.-Б.81-93.
3. Абдулла Авлоний (1878-1934) //Маънавият ўлдузлари: (Марказий Осиёлик машхур сиймолар, алломалар, адиблар) /Масъул мухаррир: М.М.Хайруллаев.-Тўлд.кайта нашр.-Т.: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашр., 1999.-Б.365-368.
4. Nusratova N.Ch. АКТУАЛЬНОСТЬ ТЕМЫ ВОЙНЫ В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ЛИТЕРАТОРА САФАРА БАРНОЕВА). <http://is.nkzu.kz/publishings/%7B5CC60354-BD77-41D4-9CFA-58C15562B97E%7D.pdf#page=7>

#### 4-SINF O'QUVCHILARINI O'Z NUTQIDA MAQOLDAN FOYDALANISHGA ORGATISH

*Safarov Firuz, Sulaymonovich  
BuxDU boshlang'ich ta'lim naqariyasi  
kafedrasi naqariyasi dotsenti  
Xatilova Marjona Sobirjon  
BuxDU boshlang'ich ta'lim va sport,  
tarbiyaviy ish yo'naliishi talabasi*

Maktabda ona tilini o'qitishdan asosiy maqsad o'quvchilarda o'z ona tilida fikrni to'g'ri, aniq, ravon va go'zal ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchi nutqiga qo'yiladigan muhim talablardan yana biri uning boy, rang-barang va ta'sirchan bo'lishidir. Nutqning boy va ta'sirchan bo'lishi avvalo fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ko'chma ma'noli so'zlar, tasviriy ifoda va iboralardan, shuningdek, nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: maqol va matallardan o'tinli foydalanishda namoyon bo'ladi. Dono fikrni, o'tkir haqiqatni, teran mazmunni o'zida mujassam etgan maqollar nutqning ekspressiv (ya'ni, ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylashga majbur qiluvchi kuchga ega vositadir. Binobarin, o'quvchilar nutqini maqollar bilan boyitish, ularni o'z nutqida maqollardan foydalanishga o'rgatish ona tili va adabiyot predmeti oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Shuning uchun ushbu maqolamizni 4-sinfo'quvchilarini o'z nutqida maqollardan foydalanishga o'rgatish usullarini ishlab chiqishga bag'ishladik.

O'quvchi maqollardan o'z nutqida foydalana olishi uchun avvalo ko'p maqolni yoddan bilishi va ularning ma'nosini tushunishi kerak. Buning uchun ona tili va adabiyot darslarida o'qituvchi ko'proq xalq maqollari ma'nosini sharhlashi, ma'lum bir xalq maqolini uning boshqa shakli bilan almashtirishga o'rgatishi lozim.

4-sinfo'quvchilariga maqollar m'nosini tushuntirishning quyidagi yo'llari mavjud:

1. To‘g‘ridan to‘g‘ri maqol ma’nosini izohlash. Bunda o‘qituvchi maqollar ma’nosini izohlangan turli manbalardan foydalanib, o‘quvchilarga ularning ma’nosini sharhlaydi. Masalan, Sh.Shomaqsudov va Sh. Shorahmedovlarning “Hikmatnoma” deb nomlangan o‘zbek maqollarining izohli lug‘atidan foydalanish mumkin.

4-sinfo‘qish kitobida maqollar alohida mavzu sifatida berilgan. Birinchi maqol “Ona yurting – oltin beshiging”. “Hikmatnoma” kitobida bu maqol quyidagicha izohlanadi: Maqollarimizda o‘zbek xalqining ona – Vataniga bo‘lgan cheksiz muhabbat, hurmati, sadoqati o‘z aksini topgan. Ularda Vatan, el-yurt ulug‘lanadi, har kim o‘z elida erkin nafas olishi, izzat-hurmatda yashashi ko‘rsatilib, Vatanni sevish, unga sodiq bo‘lish zarurligi uqtiriladi. (300-bet). SHundan so‘ng Vatanga muhabbat haqidagi maqollar qatori keltirilib, shunday deyiladi: “Bu kabi turkum maqollarda Vatanning tinchligini saqlash, uning daxlsizligini, ozodligi va mustaqilligini ta‘minlash, ona tuproqni dushman oyog‘i ostida toptatmaslik, vayron bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik-oliy burch ekanligi uqtiriladi”. (300-bet)

Bu maqoldan keyin: “Ilm – aql chirog‘i”, “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni” maqollari keltirilgan. O‘qituvchi bu maqollarni izohlash uchun bilimning ahamiyatini oddiy hayotiy misollar bilan tushuntirib berishi lozim. Masalan, qo‘sish, ayirish, bo‘lish, ko‘paytirishni bilmagan kishi bozorga borib biror narsa xarid qila olmaydi, uy qurmoqchi bo‘lsa, unga qancha g‘isht, taxta kerakligini hisoblay olmaydi. Hayotingizda ota-onangizdan, o‘qituvchilardan, atrofdagilardan o‘rgangan ko‘p narsalar ham bilimdir. Masalan, suvning tashnalikni qoldirishi, bug‘doydan un qilinishi, undan hamir qilinib, xamirdan non yopilishi, mevalardan murabbo tayyorlanishi, shox-shabbadan o‘tin sifatida foydalanish va hokazolar. Bular har bir kishining yashashi, kun kechirishi uchun zarur hayotiy bilimlardir. Bular dan tashqari turli ilmiy kitoblardan o‘qib, tabiat hodisalarini kuzatib, fikrlab hosil qilinadigan chuqr bilimlar bor. Bilim so‘zi, asosan, ana shunday bilimlarga nisbatan qo‘llanadi. Bunday bilimga ega bo‘lgan kishi olim deyiladi. Olimlar egallagan bilimi asosida yangi narsalarni kashf qiladi. Masalan, o‘zimiz har kuni eshitadigan radioni olaylik. Biz radiodan eshitadigan ovoz maxsus radiouzatgich antennasi radioto‘lqinni nurlantiradi, natijada to‘lqin xohlagan masofaga uzatiladi. Buning uchun hech qanday sim kerak bo‘lmaydi. Radioto‘lqin yordamida ovozni ma’lum masofaga uzatish usulini 1895-yilda rus olimi Aleksandr Popov kashf etgan. endi esa radioaloqadan butun dunyo foydalanmoqda. SHuning uchun, o‘quvchilar, siz qunt bilan o‘qib, tinimsiz bilim egallashingiz lozim.

YUqorida keltirilgan maqollar to‘g‘ri ma’noli maqol bo‘lib, ularning ma’nosini tushunish unchalik qiyinchilik tug‘dirmaydi. Biroq shunday maqollar borki, ko‘chma ma’noda qo‘llanadi.

Masalan, quyidagi maqollarning ko‘chma ma’nosini: “Xavf-xatardan qo‘rqqan maqsadga etolmas”:

1. CHumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas.
2. O‘g‘ridan qo‘rqqan mol yig‘mas.
3. Kuchukdan qo‘rqqan gado bo‘lmas.

Bunday ko‘chma ma’noli maqollar ma’nosini tushuntirish murakkabroq bo‘lib, bu o‘quvchidan obrazli fikrlashni talab qiladi. Bunday maqollar ma’nosini tushunish uchun maqolda ifodalangan obrazni, belgi xususiyatlarni odamlarga ko‘chirish lozim.

Masalan, “Qovun qovundan rang oladi” maqolini olamiz. O‘qituvchi avval bu maqolning o‘z ma’nosini tushuntiradi. Bir joyda, bir palakda o‘sgan qovunlar bir xil rangda bo‘ladi. Masalan, bittasi sariq bo‘lsa, qolganlari ham sariq bo‘ladi. Keyin o‘qituvchi maqolning ko‘chma ma’nosini izohlashga o‘tadi:

– O‘quvchilar, endi qovunning o‘rniga odamlarni qo‘yib ko‘ramiz. Bir biriga hamroh bo‘lib yuradigan odamlar bir-biridan nima olishi mumkin?

O‘quvchilar: – Bir-birining yaxshi yoki yomon xislatlarini olishi mumkin.

– To‘g‘ri, Sobir va Abdulla degan ikki bola bir-biriga do‘st. Sobir-dangasa, o‘qishni xush ko‘rmaydigan bola. Abdulla mustaqil fikrli, irodali bola bo‘lmasa, Sobirning yo‘rig‘iga kirsa, nima bo‘ladi?

- Abdulla ham dangasa, o'qishni yoqtirmaydigan bolaga aylanadi.
  - To'g'ri, demak, sizlar ham do'st tanlashda ehtiyot bo'lishingiz kerak. Dangasa do'st sizga dangasaligini, yolg'onchi do'st yolg'onchiligini yuqtiradi. YA'ni qovun qovundan rang oladi.
- 4-sinfo'quvchilarini o'z nutqida maqollarni qo'llashga o'rgatish ancha murakkab ish. Bu o'qituvchidan maqollar yuzasidan muntazam ish olib borishni talab qiladi. 4-sinfo'quvchilarini og'zaki va yozma nutqda maqollardan foydalanishga o'rgatish uchun quyidagi amaliy ishlar, mashqlardan foydalanish mumkin:

1.O'quvchilarga maqollarning ma'nosini ifodalaydigan gaplar yozdirilib, bu gaplarning ma'nosiga muvofiq keladigan maqol topib aytish topshiriladi. Dastlabki paytda bu maqollarni doskaga yozib qo'yish ham mumkin.

O'qituvchi doskaga bir nechta maqol yozadi. Masalan: quyidagi maqollarni yozish mumkin:

1. CHumchuqdan qo'rqqan tariq ekmas.
2. Qovun qovundan rang olar.
3. Ko'rpangga qarab oyoq uzat.
4. Egri to'nkaga egri to'qmoq.
5. Shamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.
6. Kengashli to'y tarqamas.
7. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi.
8. Gul tikansiz bo'lmas.
9. Semiz qo'yning umri qisqa.
10. Ot tepkisini ot ko'taradi.

SHundan so'ng o'quvchilarga bu maqollarning ma'nosi tartibi o'zgargan shaklda yozdiriladi.

1. Imkoniyatingga qarab ish tut.
2. Sababsiz biror voqeа bo'lmaydi.
3. YAqin kishilarning fe'l-atvori bir-biriga yuqadi.
4. Maslahatlashib qilingan ishning natijasi yaxshi bo'ladi.
5. Semirish sog'liq uchun xavfli.
6. Mehnat – mashaqqatsiz rohatga, maqsadga erishib bo'lmaydi.
7. Xavf-xatardan qo'rqqan kishi maqsadiga yotolmas.
8. Sog'liq bo'lsa, boshqa hamma narsani topish mumkin.
9. Tengqurlar, do'stlar bir-birlarining gaplarini ko'taradi.
10. Yomon odamlar bilan o'ziga yarasha muomalada bo'lish lozim.

Maqolning ma'nosi yozdirilgach, o'qituvchi o'quvchilardan yozdirilgan gaplarning ma'nosini ifodalovchi maqolni topishni so'raydi.

O'qituvchi: – O'quvchilar, "Imkoniyatingga qarab ish tut" degan ma'noni qaysi maqol bilan ifodalish mumkin?

O'quvchilardan biri: – "Ko'rpangga qarab oyoq uzat" maqoli bilan.

O'qitvchi: Nima uchun aynan shu maqol bilan ifodalash mumkin?

O'quvchi: CHunki ko'rsa kalta bo'lsa, odam oyog'ini tortishi kerak. Biz bolalar ham kattalar qiladigan og'ir ishlarni qilishga urinmasligimiz kerak.

O'qituvchi: – O'quvchilar, "Sababsiz biror voqeа sodir bo'lmaydi" degan ma'noni qaysi maqol bilan ifodalash mumkin?

O'quvchilardan biri: – "SHamol bo'lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi" maqoli bilan.

O'qituvchi: – Nima uchun?

O'quvchi: – CHunki daraxtning uchi shamol bo'lsa, qimirlaydi. Daraxtning uchi qimirlashiga shamol sabab bo'ladi. Sababsiz biror narsa yuz bermaydi.

O'qituvchi: – "YAqin kishilarning fe'l-atvori bir-biriga yuqadi" degan gapning ma'nosini qaysi maqol bilan ifodalash mumkin?





O‘quvchilardan biri: – “Qovun qovundan rang oladi” maqoli bilan.

O‘qituvchi: – Nima uchun?

O‘quvchi: – CHunki bir palakda o‘sgan qovunlar bir xil rangga kiradi, bir-biridan rang oladi. Xuddi shunday bir-biriga yaqin kishilar, do‘sstar ham bir-biriga fe‘l-atvorini o‘tkazadi. Masalan, dangasa bola bilan o‘rtoq bo‘lgan bola dangasa bo‘ladi.

O‘qituvchi: – “Maslahatlashib qilingan ishning natijasi yaxshi bo‘ladi” degan gapning ma’nosini qaysi maqol bilan ifodalash mumkin?

O‘quvchilardan biri: – “Kengashli to‘y tarqamas” maqoli bilan.

O‘qituvchi: – Biror ish qilishda kim bilan maslahatlashish krak.

O‘quvchi: – Tajribali, ko‘pni ko‘rgan, yoshi katta kishilar bilan maslahatlashish kerak.

O‘qituvchi: – “Semirish sog‘liq uchun xavfli” gapining ma’nosini qaysi maqol bilan ifodalash mumkin?

O‘quvchilardan biri: – “Semiz qo‘yning umri qisqa” maqoli bilan.

O‘qituvchi: – Nima uchun semiz qo‘yning umri qisqa bo‘ladi?

O‘quvchi: – CHunki semiz qo‘yni darrov so‘yadilar.

O‘qituvchi: Xuddi shunday, semiz odam ham turli kasalliklarga moyil bo‘ladi. Uzoq umr ko‘rolmaydi. Semizlik esa ko‘p eyishdan, mechkaylikdan yuzaga keladi.

O‘qituvchi: – “Mehnat, mashaqqatsiz rohatga, maqsadga erishib bo‘lmaydi” degan gapning ma’nosini qaysi maqol bilan ifodalash mumkin?

O‘quvchilardan biri: – Gul tikansiz bo‘lmas maqoli bilan.

O‘qituvchi: – “Xavf-xatardan qo‘rqan kishi maqsadiga etolmas” gapining ma’nosini qaysi maqol bilan ifodalash mumkin?

O‘quvchilardan biri: – “CHumchuqdan qo‘rqan tariq ekmas” maqoli bilan.

2. Sinfdag'i o‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi. Ikkala guruhdagi o‘quvchilar navbatmanavbat bir-biriga biror maqolning ma’nosini bildiradigan gap aytadi. Raqib guruhidagi o‘quvchilar shunday ma’noni ifodalarydigan maqol aytishi kerak. Masalan, quyidagicha:

1- guruh o‘quvchisi: – Ko‘pchilik birlashib, hamjihat bo‘lib ishga kirishsa, har qanday mushkul ishning ham uddasidan chiqa oladi.

2- guruh o‘quvchisi: – Ko‘pdan quyon qochib qutulmas.

2- guruh o‘quvchisi: – Qiyinchilikdan qo‘rqan kishi maqsadiga etolmaydi.

1- guruh o‘quvchisi: – Chumchuqdan qo‘rqan tariq ekmas.

Aytishuv shu tarzda davom ettiriladi.

Bunday maqol aytishuv o‘quvchini ko‘p maqol yodlashga, ularning mazmunini bilishga majbur qiladi.

3. O‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lum bir hayotiy vaziyatni va o‘quvchilardan mana shu vaziyatga mos maqol topib aytishni so‘raydi. Masalan, o‘qituvchi shunday deydi: “O‘quvchilar, faraz qiling, Anvar degan bola ko‘chadagi yomon, bezori bolalarga qo‘sildi. Otasi uni bu yo‘ldan qaytarish uchun qaysi maqolni ishlatishi mumkin?”

O‘quvchilardan biri: “Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqadi” maqolini ishlatishi mumkin”, – deb javob beradi.

Yana bir vaziyat. O‘qituvchi o‘quvchilardan so‘raydi: “O‘quvchilar, bir kambag‘al odam o‘g‘lini uylantirish uchun katta dabdabali to‘y qilib bermoqchi. Uning bunday to‘y qilishga imkoniyati yo‘q. Shuning uchun boshqalardan qarz olishga majbur. Odamlar unga bu ishni qilmasligi uchun unga qaysi maqolni aytib maslahat berishi mumkin?”

O‘quvchilardan biri: “Ko‘rpangga qarab oyoq uzat” maqolini aytib maslahat berishi mumkin”, – deb javob beradi.

4. O‘quvchilarga biror badiiy asar (hikoya, ertak) o‘qitib, ulardan shu asar mazmuniga mos maqol topish so‘raladi. Buning uchun adabiyot kitobidagi matnlardan foydalanish mumkin. Masalan, 4-sinfadabiyot darsligida “Susambil” ertagi berilgan. Bu ertakda ho‘kiz, eshak, xo‘roz, kalamushlar va arilarning Susambil degan so‘lim joyni topishi va bиргалашив bo‘rilarni engishi haqida hikoya qilinadi. Demak, bu ertak ahillik haqida.

O‘quvchilar bu ertakning mazmuniga mos keladigan quyidagi maqollarni aytishi mumkin:

1. Birlashgan daryo bo‘lur,  
Tarqalgan irmoq bo‘lur.
2. Birlashgan yovni qaytarar.
3. Birlashgan kuch engilmas.
4. Birlashgan tog‘ni talqon qilar.
5. Oltovlon ola bo‘lsa,  
Og‘zidagin oldirar.  
To‘rtovlon tugal bo‘lsa,  
Unmaganni undirar.

5. O‘quvchilarga ijodiy matn tuzdirilib, ularga shu matnda maqoldan foydalanish topshiriladi.

Bunday mashqlar o‘quvchilarda o‘z nutqida maqollardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantiradi.

## **ПСИХОЛОГИК ХИЗМАТНИНГ ЎЗИГА ХОС ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ**

*Яхшиимбекова Сайёра Камаловна  
Тошкент вилояти Чирчиқ давлат  
педагогика институти 1-босқич магистранти  
Мирзаева Сайёра Рустамовна  
ТВЧДПИ Психология кафедраси в.б.доценти(PhD)*

**Аннотация.** Илмий мақола мазмунида ўсмирларда психологик хизматни ташкил этишга назарийёндошилган. Ўсмирёшдаги психологик хизмат улардаги ўз вазифаларини маромида бажариш фаолиятида вужудга келадиган турли руҳий - эмоционал муаммолар диагностикасини ҳамда психологик профилактикасини бажариш, шунингдек, психологик коррекциясини ўтказиш заруратини турли омиллар билан асосланган.

Калит сўзлар: Психодиагностика, психокоррекция, психологик профилактика, психолог, эмоция.

Маълумки, таълим жараёнида бир – бирига боғлик бўлган икки нарса - нимани ва қандай ўқитиш масаласи мухим аҳамият касб этади. Биринчиси дарслар жадвалидаги ўқув фанини англатса, иккинчиси уни ўқувчиларга қандай етказиш йўл ва воситаларини, яъни мазкур фанни ўқитиш услубиятини ифодалайди. Айнан тўғри танланган услубият инсонларга ҳаётда оқилона йўл топишнинг энг осон шарт – шаронтларини топишга имкон беради [4]. Албатта, турли – туман фанлар орасида уларнинг мазмун – моҳияти нуктаи назаридан тафовут бўлгани сингари, уларни ўқитишда ҳам ўзига хос фарқлар бўлиши табиий. Шу маънода олий ўқув юртларида психология фанини ўқитиш мухим аҳамият касб этади.

Ўсмирларга психологияни ўргатишдан мақсад улар онгига турли хил вазиятларда инсонлар билан ҳамкорлик килиш имконини берадиган назарий ва амалий билимларни сингдириш баробарида, уларнинг ҳаёт – фаолиятларини ҳам ўзгартиришдан иборат. Чунки психологик онгнинг ўзига хос хусусияти шундаки, у билим ва ҳатти – ҳаракатларни бирлаширади, яъни унда назария ва амалиёт бирлашиб кетади.

Гарчи психология моҳият эътибори билан гуманитар фан ҳисобланса – да, унда табиий, биологик фанларга хос хусусиятлар ҳам мавжуд. Шунга кўра унга баъзи олимлар биоижтимоий фан сифатида баҳо беришади. Бир қатор тадқиқотчилар ишларида эса психологияга ижтимоий – тарихий фан сифатида каралганлигига гувоҳ бўлишимиз мумкин [2]. Шунинг учун ҳам психология муаммоларини ўрганишда табиий – илмий услублар билан бир қаторда ижтимоий – гуманитар фанларга оид усувлар ҳам